

References:

1. Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan. (2019). On approval of the Budget Accounting Standard of the Republic of Uzbekistan (BAS No. 3) "Budget Reporting" (Registered No. 3124, January 18, 2019).
2. Decree of President of the Republic of Uzbekistan. (2022). No. PF-60 dated January 28, 2022.
3. Hasanaj, P., & Kuqi, B. (2019). Analysis of financial statements: The importance of financial indicators in enterprise. *Journal of Accounting, Finance and Auditing Studies*, 5(2), 1–15.
4. Abdulshakour, S. (2020). Impact of financial statements for financial decision-making. *Open Science Journal*, 5.

SOLIQ VA BUDJET TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI USTUVOR MASALALAR

Omonova Shohista Ikrom qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davlat moliya tizimini, xususan fiskal tizimni tubdan modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Fiskal tizimni raqamlashtirish davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini shakllantirish, soliqlarni hisoblash va undirish hamda budjet jarayonlarini boshqarishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda fiskal tizimni raqamlashtirish nafaqat texnologik yangilanish, balki fiskal boshqaruvning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois fiskal tizimni raqamlashtirishdagi ustuvor masalalarni aniqlash va ularni izchil hal etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Fiskal tizimni raqamlashtirish - bu soliq va budjet munosabatlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida avtomatlashtirish va integratsiyalash jarayonidir. Ushbu jarayon fiskal ma'lumotlarning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan. An'anaviy fiskal boshqaruv usullari zamonaviy iqtisodiy sharoitda yetarli darajada samarali bo'lmayotgani sababli raqamli yechimlarni joriy etish zarur.

Fiskal tizimni raqamlashtirishdagi asosiy ustuvor masalalardan biri soliq ma'murchiligini raqamlashtirishdir. Elektron deklaratsiyalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron hisob-fakturalar va hisobotlar hamda avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari soliq tushumlarini oshirish bilan birga soliq to'lovchilarga qulaylik yaratadi.¹³⁰ Elektron xizmatlar orqali soliq to'lovchilar soliq qarzdorligi, imtiyozlar va to'lov muddatlari haqida tezkor ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon soliq intizomini mustahkamlash va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qiladi.

¹³⁰ Sh.I.Omonova. Fiskal siyosat va raqamlashtirishning nazariy-uslubiy asoslari. V son-may, 2024, 228-233b Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal |ISSN: 2992-877X

Davlat budjeti xarajatlarini raqamlashtirish fiskal tizim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Raqamli platformalar orqali xarajatlarni rejalashtirish, ijro etish va nazorat qilish jarayonlari soddalashtiriladi. Ochiq budjet platformalarining joriy etilishi esa jamoatchilik nazoratini kuchaytirib, davlat budjetining shaffofligini ta‘minlaydi.

Raqamlashtirish natijasida soliq ma‘murchiligi soddalashadi, inson omili kamayadi va korrupsiya holatlarining oldi olinadi. Budjet jarayonlarining raqamlashtirilishi esa davlat mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali real vaqt rejimida soliq tushumlari va budjet xarajatlarini monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa davlat moliyaviy siyosatini tezkor va asosli qarorlar orqali olib borishga xizmat qiladi.

Fiskal tizimni raqamlashtirish jarayonida turli davlat organlari axborot tizimlari o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvini ta‘minlash yana bir ustuvor masalalardan biridir. Soliq, bojxona, bank va statistika tashkilotlari o‘rtasidagi axborot almashinuvi soliq bazasini aniqlashtirish va soliqdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash imkonini beradi. Integratsiyalashgan axborot tizimlari asosida soliq risklarini tahlil qilish va soliq tekshiruvlarini tanlab o‘tkazish mexanizmlari joriy etiladi. Bu esa ortiqcha tekshiruvlarni kamaytirib, halol soliq to‘lovchilar manfaatlarini himoya qiladi. Shu bilan birga, fiskal ma‘lumotlarning maxfiyligi va axborot xavfsizligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberxavfsizlikni kuchaytirish va ma‘lumotlarni himoyalash mexanizmlarini takomillashtirish raqamli fiskal tizimning barqaror ishlashini ta‘minlaydi.

Sun‘iy intellekt, katta hajmdagi ma‘lumotlar (Big Data) va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlaridan foydalanish fiskal nazorat samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalar soliq risklarini aniqlash, noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Natijada fiskal siyosatning natijadorligi sezilarli darajada oshadi.

1-jadval

O‘zbekistonning raqamlashtirish ko‘rsatkichlari^{131 132}

Yillar	Hukumatning SI ga tayyorlik (ko‘rsatkich)	SI ga indeks	Hukumatning SI ga tayyorlik indeksi (o‘rin)	EGDI indeksi (e-Government Development Index)
2019	1,412		158	0,62
2020	37,17		95	0,67
2021	40,13		93	0,67
2022	44,51		79	0,78
2023	43,79		87	0,78
2024	53,45		70	0,79
2025	56,11		62	0,79

¹³¹ Oxford Insightsning 2019-2025-yillar uchun hisobotlari

¹³² BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti davlat muassasalari va raqamli hukumat bo‘limining 2019-2025-yillar uchun hisobotlari

Jadval ma'lumotlaridan O'zbekistonning sun'iy idrokni joriy qilishga bo'lgan imkoniyatlari yil sayin yaxshilanib hukumatning SI ga tayyorlik indeksi 2025-yilda 56.11, o'rni esa 62 ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz elektron hukumatning rivojlanish indeksida ham yaxshi natija qayd etgan.

Fiskal tizimni raqamlashtirish faqat texnologik emas, balki institutsional islohotlarni ham talab etadi. Davlat organlari xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish, malakali IT-mutaxassislarni jalb etish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ushbu jarayonning muhim ustuvor masalalaridan hisoblanadi.

Yaratilgan qulayliklar natijasida 2025-yilda respublika miqyosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajaralishi 97%ni tashkil etdi.¹³³

Bu borada eng yaxshi ko'rsatkich yirik soliq to'lovchilar bo'yicha HSIda qayd etilgan ya'ni 98% tashkil etgan.

Soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajaralishi soliq turlari kesimida:

- yer qaridan foydalanganlik uchun soliq - 100%;

- aksiz solig'i - 98%;

- QQS, foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq - 97%;

- JShODS, mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - 96%.

Xulosa qilib aytganda, fiskal tizimni raqamlashtirish davlat budjeti boshqaruvining samaradorligini oshirish, soliq tushumlarini barqarorlashtirish va jarayonlarni shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Soliq va budjet tizimlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda inson kapitalini rivojlantirish fiskal tizimni raqamlashtirishdagi asosiy ustuvor masalalar hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. – 30.12.2019-yildagi son*

2. *O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli qonuni - 2021-yil 22-aprel*

3. *Sh.I.Omonova. Fiskal siyosat va raqamlashtirishning nazariy-uslubiy asoslari. V son-may, 2024, 228-233b Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal |ISSN: 2992-877X;*

4. *Oxford Insightsning 2019-2025-yillar uchun hisobotlari;*

5. *BMT ning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti davlat muassasalari va raqamli hukumat bo'limining 2019-2025-yillar uchun hisobotlari;*

6. *Davlat soliq qo'mitasi fiskal tahlili 2026-yil 8-yanvar.*

¹³³ Davlat soliq qo'mitasi fiskal tahlili 2026-yil 8-yanvar